

MADANIY MEROS VA MADANIY XILMA-XILLIKNING QIYOSIY TAHLILI
(NAVRO'Z VA SOLNAL BAYRAMLARI MISOLIDA)

Oktyabrova Ruhshona Olimboy qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Koreyashunoslik Oliy maktabi 2-kurs talabasi

oktyabrovaruhshona@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy bayramlar kontekstida madaniy xilma-xillik va madaniy merosni anglash masalalari qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Turli xalqlarning milliy bayramlari ularning tarixiy xotirasi, qadriyatlari va ijtimoiy o'ziga xosligini aks ettiruvchi muhim madaniy hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida Koreya va O'zbekiston davlatlari madaniyatlarining bayram an'analari qiyoslab o'rganilib, milliy bayramlarning kelib chiqish tarixi, nishonlanish uslubi, tayyorlanadigan taomlari, shuningdek, alohida urf-odatlar orqali umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi. Milliy bayramlarning madaniy merosni saqlash, avlodlar o'rtasida uzviylikni ta'minlash hamda madaniy xilma-xillikni mustahkamlashdagi o'rni ochib beriladi. Shu bilan birga, maqola globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash va madaniy bag'rikenglikni rivojlantirish masalalarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: milliy bayramlar, qadriyatlar, Solnal, Navro'z, qiyosiy yondashuv, madaniy meros, madaniy xilma-xillik

Milliy bayramlar – xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va ijtimoiy xotirasini aks ettiruvchi ijtimoiy tizim. Milliy bayramlar xalqning tarixiy xotirasi, an'analari va madaniy merosini ramziy shaklda namoyon etib, jamiyat a'zolari o'rtasida madaniy uzviylikni ta'minlaydi⁷¹. Xususan, o'zbek xalqining Navro'z bayrami hamda koreys xalqining Solnal (설날) bayrami tabiat, vaqt va avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi muhim madaniy hodisalar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu bayramlar marosimlar jihatidan farqlansa -da, ularning asosiy vazifasi - madaniy qadriyatlarni saqlash va ularni avloddan avlodga yetkazish hisoblanadi. Navro'z va Solnal bayramlarini qiyosiy yondashuv asosida o'rganish orqali turli madaniyatlarning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, shuningdek, milliy bayramlar kontekstida madaniy xilma-xillik va merosni anglash jarayonini chuqurroq tahlil qilishga xizmat qiladi.

Navro'z bayramining tarixi juda qadimiy bo'lib, u bizga ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan eng aziz qadriyatdir. Bu bayramni shunchaki xalqning uzoq yillardan beri saqlanib kelayotgan bayrami emas, balki tabiatning uyg'onishi va yangi hayotning boshlanishi ramzi deb tushunish kerak. "Navro'z" so'zi forscha "yangi kun" degan ma'noni anglatadi va u ming

⁷¹ Adambayev U. X., Rahimberdiyev S. U. Navro'z bayrami va uning etnomadaniy ahamiyati// Academic Research in Educational Sciences.–Toshkent, 2022. – Vol. 3. – B. 175-177.

yillar davomida shakllanib kelgan. Hali islom dini kirib kelmasdan oldin, odamlar kun va tun tenglashgan 21-mart sanasini bayram qilishgan, chunki bu vaqtda dehqonlar dalaga chiqqan, borliq yashillikka burkangan⁷².

Tarixiy manbalarga ko'ra, buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Navro'zni "olamning paydo bo'lishi" bilan bog'laganini ko'ramiz. Uning yozishicha, bu kun quyoshning falakdagi o'rni o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, insoniyat uchun baraka va poklanish kuni hisoblangan⁷³. Shuningdek, Navro'z xalqni birlashtiradigan, gina-qudratlarni unuttiradigan mehr-oqibat bayrami ham hisoblanadi.

Navro'z bayrami nafaqat ko'ngilochar bayramona tadbirlar majmuasi emas, balki o'zida chuqur ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalarni mujassam etgan tizimdir. Chunki ushbu bayram kontekstida amalga oshiriladigan an'anaviy marosimlar jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirish va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Xususan, bayram arafasida o'tkaziladigan umumxalq hasharlari, ariqlarni tozalash va ko'chat ekish kabi tadbirlar yosh avlodda tabiatga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Shu bilan birga, Navro'zning ijtimoiy ahamiyati uning insonparvarlik tamoyillarida ham namoyon bo'ladi. Keksalarni ziyorat qilish, ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamga yordam ko'rsatish kabi amallar o'zbek xalqining ma'naviy merosini avlodlardan avlodga uzatishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, Navro'z davrida ijtimoiy munosabatlar qayta tiklanadi va jamoaviy birdamlik tuyg'usi yanada mustahkamlanadi⁷⁴. Bunday jarayonlar esa bayramning nafaqat tarixiy, balki bugungi kundagi dolzarb sotsiokultural funksiyasini belgilab beradi.

Shu bilan birga, Navro'z bayramining o'ziga xosligi nafaqat uning tarixi, asrlar davomida shakllanib kelayotgan gastronomik madaniyati, balki folklor o'yinlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Bu elementlar bayramning nomoddiy madaniy meros sifatidagi qimmatini belgilab beradi. Shuningdek, Navro'z bayramida o'tkaziladigan milliy o'yinlar guruh bo'lib o'ynalgani uchun hamjihatlikni saqlaydi. Masalan, uloq, ko'pkari, kurash o'yinlari mardlik, epchillik, kuch ramzi bo'lib, qahramonlik ruhini aks ettiradi. Ular asosan keng maydonlarda, katta xalq sayillari davomida o'tkaziladi⁷⁵. Navro'z sayillariga o'zgacha ruh bag'ishlagan arqon tortish esa jamoaviylik va muvozanatni saqlashni talab qilsa, bolalar o'rtasida ommalashgan varrak uchirish va lanka (o'g'il bolalar o'yini bo'lib, oyoqning ichki tomoni bilan lankani yuqoriga otish kerak) vaqtini maroqli o'tkazishga xizmat qilgan.

Navro'z bayramining asosiy elementi, shubhasiz, sumalak hisoblanadi. Etnografik manbalarda ta'kidlanishicha, sumalak tayyorlash jarayoni shunchaki pazandachilik jarayoni

⁷² Adambayev U. X., Rahimberdiyev S. U. Navro'z bayrami va uning etnomadaniy ahamiyati // Academic Research in Educational Sciences. – Tashkent, 2022. – Vol. 3. – B. 175-177.

⁷³ Turdiyeva G. K. O'zbek milliy madaniyati va san'ati tarixida Navro'z umumxalq bayramining o'rni // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Tashkent, 2022. – B. 12-16.

⁷⁴ Toshpo'latov T. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. – Tashkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – B. 45-46.

⁷⁵ Adambayev U. X., Rahimberdiyev S. U. Navro'z bayrami va uning etnomadaniy ahamiyati // Academic Research in Educational Sciences. – Tashkent, 2022. – Vol. 3. – B. 175-177.

emas, balki jamoaviylik va birdamlik ritualidir. Chunki bu bir necha bosqichli jarayondan iborat va sumalak qozoni atrofida aylanish, niyat qilish, qozon tubiga tosh tashlash ham o'ziga xos ramziy ma'noga ega. Shuningdek, Navro'z dasturxonidan joy olgan ko'k somsa, halim, ko'k manti va ko'k chuchvara kabi taomlar inson salomatligini tiklash va bahorgi ne'matlardan bahramand bo'lish maqsadida iste'mol qilinadi⁷⁶. Bayram doirasidagi bunday madaniy marosimlar, an'anaviy taomlar va xalq o'yinlari esa madaniy xilma-xillikni saqlashda muhim poydevor bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Sharq sivilizatsiyasida yangi yilning boshlanishi nafaqat taqvimiy hodisa, balki chuqur ma'naviy yangilanish davri hisoblanadi. Koreys madaniyatida oy taqvimi bo'yicha nishonlanadigan Solnal (설날) bayrami aynan shu vazifani bajaradi. Ushbu bayram koreys xalqining mavsumiy urf-odatlarini tizimida markaziy o'rinni egallab, hayot aylanishining yangi bosqichiga o'tish ramzi sanaladi. Solnal oy taqvimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, qadimiy tushunchalarga ko'ra, oyning o'zgarishi vaqt o'tishini kuzatish uchun eng qulay vosita bo'lgan. Dehqonchilik ishlari quyoshning 24 burji asosida rejalashtirilgan bo'lsa-da, bayramlar va marosimlar aynan oy fazalariga tayanib belgilangan. Solnal o'zida ma'lum bir xalq o'yinlarini ham jamlagan kompleks madaniy hodisadir⁷⁷.

Solnal (설날) bayramining markaziy qismida "Ajdodlar xotirasi" (차례) marosimi turadi va yangi yilning birinchi kuni ertalab amalga oshiriladi. Ushbu marosimlar majmuasi oila a'zolarining bir joyga to'planishini va o'tgan to'rt avlodgacha bo'lgan ajdodlar xotirasini yod etishni taqozo etadi⁷⁸. Marosim davomida maxsus tayyorlangan taomlar bilan vafot etganlar ruhi uchun stol tayyorlanadi, bu esa tiriklar va o'tganlar olami o'rtasidagi madaniy uzviylikni anglatadi. Marosimning mantiqiy davomi sifatida "Yangi yil ta'zimi" (세배) odati bajariladi. Unda yosh avlod vakillari o'zlaridan yosh jihatdan katta bo'lgan oila a'zolariga (masalan, otana, bobo va buvilarga) chuqur ta'zim qilishadi. Ushbu jarayon shunchaki salomlashish emas, balki jamiyatdagi iyerarxik tartibni va kattalarga hurmat tamoyilini mustahkamlovchi vositadir. Buning evaziga kattalar yoshlarga kelgusi yil uchun xayrli tilaklar bildirib, "세뱃돈" (yangi yil ta'zimi uchun beriladigan pul) deb ataluvchi sovg'alarini ulashadilar⁷⁹. Ushbu qadriyatlar tizimi o'zbek xalqining Navro'z kunlari amalga oshiriladigan "Keksalar ziyorati" va "Fotiha olish" an'analari bilan tub mohiyatiga ko'ra mushtarakdir.

Solnal (설날) dasturxonini o'zining turfa xilligi va har bir taomning alohida simvolik ma'noga egaligi bilan ajralib turadi. Bayramning bosh taomi hisoblangan "떡국" (guruchli sho'rva) poklanish va uzoq umr ko'rish ramzidir. Koreys an'anasiga ko'ra, ushbu sho'rva iste'mol qilgan kishi rasman bir yoshga ulg'aygan hisoblanadi⁸⁰. Bundan tashqari, bayramning etnografik tahlili shuni ko'rsatadiki, taomlar nafaqat ramziy, balki tibbiy

⁷⁶ Raxmonova M. S. Navro'z – qadimiy an'analari va milliy meros uyg'unligi// inLibrary.uz ilmiy bazasi. Toshkent, 2023.– B. 24-28.

⁷⁷ Guide to Korean Culture. Traditional Korean Lifestyle. – Seoul: Korea Tourism Organization, 2013.– pp. 95-98.

⁷⁸ Guide to Korean Culture. Same source. – Seoul: Korea Tourism Organization, 2013.– pp. 95-98.

⁷⁹ Korean Heritage. Seasonal Festive Customs and Folklore.– Seoul: Dong-A Ilbo, 2011.– pp. 102-105.

⁸⁰ Guide to Korean Culture. Traditional Korean Lifestyle. – Seoul: Korea Tourism Organization, 2013.– pp. 95-98.

ahamiyatga ham ega bo'lgan. Masalan, yilning birinchi to'lin oy kuni nishonlanadigan “부림” (yong'oq chaqish) odatiga ko'ra, kishilar qattiq qobiqli yong'oqlarni (masalan, kashtan, yong'oq) chaqib yeyishgan. Bu orqali tishlarni mustahkamlash va yil davomida turli teri kasalliklaridan saqlanish niyat qilingan (xuddi Navro'zda ko'k va ismaloqdan tayyorlangan taomlar iste'mol qilingani kabi). Shuningdek, erta tongda ichiladigan maxsus ichimlik esa yil davomida faqat yaxshi xabarlarini eshitishga bo'lgan umidni ifodalagan⁸¹.

Solnal (설날) davridagi ko'ngilochar o'yinlar ham Navro'z bayrami sayillaridagi o'yinlar kabi jamoaviylikni va tabiat bilan uyg'unlikni targ'ib qiladi. “웃놀이” (Yut o'yini) o'yini to'rtta yog'och tayoqcha yordamida o'ynalib, u orqali dehqonchilik yilining barakali yoki qurg'oqchil kelishi bashorat qilingan. Qizlar uchun mo'ljallangan “널뛰기” (arg'imchoqda sakrash) o'yini esa o'zbeklarning “Dorbozlik” yoki “Arqon tortish” o'yinlari kabi jismoniy chaqqonlikni talab etadi. Shuningdek, bayram kunlari varrak uchirish an'anasi ham ommalashgan bo'lib, bunda varraklar ustiga “baxtsizliklar uchib ketsin” kabi so'zlar yozilib, osmonga yo'llangan⁸².

O'zbek va koreys xalqlarining milliy bayramlari – Navro'z va Solnalni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, geografik masofaga qaramasdan, har ikki xalqning ma'naviy qadriyatlarini va dunyoqarashida chuqur mushtaraklik mavjud. Chunki bayramlar shunchaki taqvimiy hodisa emas, balki millatning madaniy kodini saqlab qoluvchi va avlodlardan avlodga uzatuvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, har ikki bayramning tub mohiyati tabiatning yangilanishi va poklanish g'oyasiga tayanadi. Navro'zda quyosh taqvimi (bahorgi tengkunlik), Solnalda esa oy taqvimi asos qilib olingan bo'lsa-da, ikkala bayram ham yangi hayot boshlanishini ifodalaydi. Bu jarayonda ajdodlar ruhiga ehtirom (o'zbeklarda ziyorat qilish, koreyslarda “ajdodlar xotirasi” marosimi) hamda oilaviy jipslik markaziy o'rinda turadi.

Shuningdek, bayramlarning estetik jozibasi milliy liboslarda namoyon bo'ladi. Koreys xalqi Solnal kunlari o'zining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lgan Hanbok (한복) libosini kiyish orqali milliy o'zligini namoyish etsa, o'zbek xalqining Navro'z sayillarida kiyadigan atlas, adras va shoyi liboslari, qo'lda tikilgan do'ppilari ular bir xil estetik vazifani bajaradi. Har ikki madaniyatda ham bayram libosi insonning tabiat bilan uyg'unligini ifodalovchi madaniy timsoldir.

Navro'z va Solnal bayramlari bugungi globallashuv davrida milliy o'ziga xoslikni saqlab qolishda muhim poydevor hisoblanadi. Ushbu qadriyatlarni qiyosiy tahlil qilish xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga va umuminsoniy merosning rang-barangligini anglashga xizmat qiladi. Bayramlar davomida saqlanib qolgan odob-axloq normalari, keksalar duosini olish va milliy liboslarni e'zozlash an'analari kelajak avlod uchun ma'naviy namuna ekanligini ko'rsatadi.

⁸¹ Guide to Korean Culture. Same source. – Seoul: Korea Tourism Organization, 2013. – pp. 95-98.

⁸² Korean Heritage. Seasonal Festive Customs and Folklore. – Seoul: Dong-A Ilbo, 2011. – pp. 102-105.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adambayev U. X., Rahimberdiyev S. U. Navro'z bayrami va uning etnomadaniy ahamiyati // Academic Research in Educational Sciences. – Toshkent, 2022. – Vol. 3. – B. 175–177.
2. Turdiyeva G. K. O'zbek milliy madaniyati va san'ati tarixida Navro'z umumxalq bayramining o'rni // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2022. – B. 12–16.
3. Toshpo'latov T. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 216 b.
4. Raxmonova, M. S. Navro'z – qadimiy an'analar va milliy meros uyg'unligi // inLibrary.uz ilmiy bazasi. – Toshkent, 2023. – B. 24–28.
5. Guide to Korean Culture: Traditional Korean Lifestyle. – Seoul: Korea Tourism Organization, 2013. – 339 p.
6. Korean Heritage: Seasonal Festive Customs and Folklore. – Seoul: Dong-A Ilbo, 2011. – 124 p.